



MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA IJTIMOY MUHITNI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGLARNING FAOLIYATI VA IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLAR.

Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi
2-kurs talabasi
abdulaziztoshpolatov26@gmail.com
+998943661073

Sodiqov Komil Nozirovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti surdopedagogika yo'nalishi
1-kurs talabasi
komilsodiqov211@gmail.com
+998919004969

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869821>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

KEY WORDS

*ijtimoiy
psixologik, kommunikatsion,
dunyoqarash,
texnologiya, ma'naviy
olam, internet, internet kafe,
xulq og'ishgan bolalar, ijtimoiy-
shaxsiy, faoliyat, assotsiallik,
affekt, shaxslararo munosabat,
mahalliy hokimiyat, ijtimoiy
ta'minot, hayriya jamg'armasi,
individuallik, axloqiy-irodaviy,
huquqbuzarlik, giyohvandlik.*

ABSTRACT

Bolalar va o'smirlarda o'rtasida xulq og'ishi va qonunbuzarliklarning oldini olish, maktab o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy muhitni shakllantirishda psixologlarning o'rnini hamda faoliyati. Ular bilan o'zaro munosabatlarining shakllanishi, ya'ni o'quvchi va ustoz o'rtasidagi munosabatlar, o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlaridagi o'zgarishlar, ziddiyatlar shu bilan birgalikda psixolog va o'quvchilarning munosabatlari, bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar haqida yoritilgan.

Yoshlarning dunyoqarashi, xulq-atvori va komil inson sifatida shakllanishida ta'sir etuvchi muhim ijtimoiy psixologik omillardan ijtimoiy muhit va bu jamiyatda axborot kommunikatsion texnologiyalarga bo'lgan talab va ehtiyojning kuchayishidir. Kun sayin jadal rivojlanib borayotgan axborot asrida zamonaviy texnika vositalaridan foydalanmaslikning yoki ularga murojaat etmaslikning hech bir iloji yo'q. Chunki dunyoqarashning shakllanishida, ma'naviy olamining yanada kengayishida ayniqsa kompyuter texnologiyasi asosiy vosita rolini bajarmoqda. Bu bir tomondan quvonarli holat. Bugungi kunda biz yoshlar mana shunday katta imkoniyatlardan xohlagancha foydalanib, o'qish yoki ish davomida vaqtimizdan ancha unumli foydalanmoqdamiz. Ammo... Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan texnika asrida, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar

ma'naviyatiga, yangiliklarga chanqoq ongiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sirning ham guvohi bo'lyapmiz. Zimdan e'tibor bersak, intrnet kafelariga serqatnov yoshlar u yerga borishib, har xil buzg'unchi g'oyalar ruhidagi o'yinlarni tomosha qilayotganlini, vaqtlarini besamar o'tkazayotganligini guvohi bo'lyapmiz.

Eng achinarlisi, befarq ota-onalar farzandim internetda o'tirib, bilim olyapti, deb o'ylashadi. Shu ma'noda turli ma'naviy tahdidlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarimizni dunyoqarashiga, xulq-atvoriga ta'sir etuvchi salbiy omillardan asrash uchun, avvalambor, sog'lom g'oyalar orqali jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz lozim. Bunday bellashuvga kirishadigan shaxsning nafaqat bilimi, balki uning axloqiy qarashlari yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim.

Odam tabiati jixatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhim ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatidir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar olamda har turli faollik tug'diradi. Ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi.

Bolalar va o'smirlarda o'rtasida xulq og'ishi va qonunbuzarliklarning oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsida asotsiallik, ruhiy beqarorlik, o'zgaruvchanlik, affektga moyillik kabi xususiyatlarning yaqqol ifodalanganligidan kelib chiqib, ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash natija beradi;
- voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishining kelib chiqishi asosiy sabablari sifatida bolalar va o'smirlar faoliyatini nazorat qilmaslik, oilada bola tarbiyasiga e'tiborning susayishi kabilar namoyon bo'lganligidan kelib chiqib, oilada va oiladan tashqarida bolalar va o'smirlar faoliyatini, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilish va oilada bola tarbiyasiga e'tiborini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir;
- moddiy maishiy sharoitning yetarli emasligi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir etishligini hisobga olib, bunday oilalarga mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta'minot va xayriya jamg'armalari tomonidan moddiy yordamlar berib turishni tashkil etish;
- ota-onalar, katta yoshdagi kishilar va o'qituvchilar tomonidan bolalar va o'smirlarga nisbatan qo'llanilayotgan qattiqqo'l, qo'pol va adolatsiz munosabatlarga barham berish;
- voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi ko'pincha ota-onalar, o'qituvchilarning bolalar va o'smirlar psixologiyasini bilmasdan turib munosabatda bo'lishliklari natijasida kelib chiqayotganligini hisobga olib ota-onalar va o'qituvchilarning psixologik bilimlarini oshirish tadbirlarini belgilash;
- voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining oldini olishda bolalar va o'smirlarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

Demakki, o'quvchi shaxsini individual psixologik xususiyatlarini har tomonlama mukammal tahlil qilish ularni o'qitish va tarbiyalash samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Tarbiyaning salbiy omillar va sharoitlari eng yoqimsiz tarzda, umuman o'sib kelayotgan shaxsning, avvalo, uning butun axloqiy-irodaviy xususiyatlarining shakllanishiga

ta'sir etadi. O'quvchining axloqiy rivojlanishi asosan uning tevarak-atrofdagi kishilarga va atrofdagilarning unga bo'lgan o'zaro munosabati va o'zaro ta'sir xususiyatlari bilan bog'liq ekan, o'qituvchilardan pedagogik jihatdan o'z holiga tashlab qo'yilgan va tarbiyasi qiyin, huquqbuzarlik va giyohvandlikka moyilligi bor, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarni bilishlari, amaliyotchi psixologlardan esa mavjud holatlarning oldini olish va bartaraf etish usullaridan samarali foydalanishlari talab etiladi. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, maktab o'quvchilari o'rtasida bulling holatlari, ya'ni bir birini taqibga olish, ustidan kulish, yakkalash holatlari kuzatiladi. Shunday vaziyatda o'quvchi stress, depressiyaga tushib qolishi, asabiy bo'lib odamovi bo'lish holatlari kuzatiladi. Bunday vaziyatda maktab psixologlari o'quvchi bilan individual ishlab unga ko'maklashadi. Mana shunday o'quvchilar bilan ishlanmasa juda ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki, ayrim o'quvchilar muammosini sir saqlaydi, hech kimga aytmaydi yoki aytolmaydi shunday vaziyatda psixologning o'rni beqiyosdir.

O'quvchi oilasida muammosi bo'lishi mumkin, bu maktabda bolaning fe'l-atvorida aks etadi. Hech qaysi sinifdoshiga qo'shilmaydi, odamovi, hayolparast bo'lib qoladi. Shunday vaziyatda ham yordam berilmasa suidsid holatiga olib keladi. Qani edi ota-onalar farzand tarbiyasiga hozirgi kunda alohida e'tibor bilan qarashganda? Axir, tarbiya bola uchun juda ham kerakku! Ayrim ota-onalar o'qiydida deb shunchaki aytib qo'yishadi. Lekin hozirgi kundagi ayrim yoshlarni ko'rib achinaman. Negaki, ular tarbiyani telefondan olishmoqda. Ko'plab narsalarni telefondan o'rganishmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilar maktabda o'qimay qo'yishgan.

Ustoz esa bu yoshlarga ilm berish uchun, kelajak avlodni tarbiyalash uchun qo'lidan kelgan barcha say-harakatlarni amalga oshirmoqda, ammo "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deyishganidek, oilada ham ota-ona tarbiyaga katta e'tibor qaratishganida yoshlar buzg'unchi g'oyalarga ishonib qolishmas edi. Buning barcha sababi ilmsizlikdandir. Yoshlarning ongi, tafakkuridagi bo'shliq yot g'oyalar bilan to'layotgani uchun, yoshlarimiz maktabni bitirganidan so'ng sezilarli darajada qiynalishmoqda, qayerga borishini, nima qilishini bilishmaydi, chunki ularda aniq aniq bir maqsad yo'q deb o'ylayman. Shuning uchun ham yoshlarga kitob o'qishni, vaqtini kerakli narsalarga sarflashni va undan unumli foydalanishini oilada tushuntirish lozim. Oiladan boshlab tushuntirilsa hayotda qiyinchiliklarni yengib o'tishida ko'maklashadi. Yurtimiz ham taraqqiy etib, zamon bilan hamnafas yoshlar kelajagi albatta buyuk bo'ladi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshpo'latov A. Q. Yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga tasir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar. Science and innovation. International scientific journal.(ISSN:2181-3337) 2022.
2. N.S.Safaev, N.A. Mirashirova, N.G.Odilova. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti. Toshkent 2013 y. 59-60 betlar!
3. O.U.Avlaev, S.R.Mirzayeva Deviant xulq psixodiagnostikasi va korreksiyasi kitobi. Toshkent-2020. 95-96 bet